XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 19 - iyul VI-45-57-10-214-K/22 Ohangaron shahar hokimligi

Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining 2022-yil 30-martdagi “Ohangaron shahridagi No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risida”gi VI-40-25-10-214-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining 2022-yil 30-martdagi “Ohangaron shahridagi No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risida”gi VI-40-25-10-214-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2-ilovasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, ya’ni “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasidan Bunyodkor ko‘chasidagi 56 ta yakka tartibdagi hovli uy-joylarni, yangi tashkil etilgan “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasiga to‘liq o‘tkazish hamda bu bilan “Bunyodkor” ko‘chasini yaxlitligini saqlab qolish to‘g‘risidagi shahar hokimining bildirgisini inobatga olib hamda yuqorida qayd etilgan Xalq deputatlari shahar Kengashining qarorini amaldagi qonun va qonun osti hujjatlariga muvofiqlashtirish maqsadida, Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ohangaron shahar hokimining Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining 2022-yil 30-martdagi “Ohangaron shahridagi No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risida”gi VI-40-25-10-214-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar

kiritish to‘g‘risidagi Bildirgisi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining 2022-yil 30-martdagi VI-40-25-10-214-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ma’qullansin va “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini Bunyodkor ko‘chasidagi 56 ta yakka tartibdagi xovli uy-joylar, yangi tashkil etilgan “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasiga to‘liq o‘tkazilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Uzakov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**